



ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI AUDITI JARAYONIDA TAHLILY AMALLARDAN FOYDALANISH

USE OF ANALYTICAL PROCEDURES IN THE AUDIT OF PRODUCTION COSTS

¹Djumanov Saitmurod
Alibekovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrası PhD., dotsenti

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada ishlab chiqarish xarajatlari auditi jarayonida tahliliy amallardan foydalanish masalalari o'rganilgan. Xususan, mahsulot tannarxini shakllantirish, xarajatlar tarkibini tahlil qilish, tannarx o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda auditorlik tekshiruvida tahliliy amallarning ahamiyati yoritilgan. Izlanishlar natijasida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining to'g'riligini auditorlik tekshiruvi jarayonida tahliliy amallar yordamida baholash, muhim buzib ko'rsatishlar riski darajasini kamaytirish hamda moliyaviy hisobot ishonchligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Eng. - This article examines the use of analytical procedures in the audit of production costs. In particular, it highlights issues related to the formation of product cost, analysis of cost structure, identification of factors influencing changes in cost, and the importance of analytical procedures in the audit process. The study substantiates that the application of analytical procedures during the audit helps to assess the accuracy of production cost accounting, reduce the risk of material misstatements, and enhance the reliability of financial reporting.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, audit, tahliliy amallar, ichki nazorat, xarajatlar tahlili, rentabellik.*

❖ *production costs, product cost, audit, analytical procedures, internal control, cost analysis, profitability.*

Kirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali boshqarish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini to'g'ri hisobga olish hamda ularni auditorlik tekshiruvi jarayonida chuqur tahlil qilishga bog'liq. Ayniqsa, don mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi «O'zdonmahsulot» AK

tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hajmi katta ulushni tashkil etganligi sababli, xarajatlar auditi va tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish, ularni tahlil qilish va nazorat qilish mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda miqdorini oshirish hamda subyekt moliyaviy holatini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tekshirishda tahliliy

amallardan foydalanish audit sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tahliliy amallar auditorlik tekshiruv jarayonida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini avvalgi davrlar, reja ko'rsatkichlari, budjet ma'lumotlari hamda tarmoq o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi. Tahliliy amallarni qo'llash natijasida moliyaviy ko'rsatkichlardagi sezilarli o'zgarishlar aniqlanadi, bu esa auditor uchun muhim buzib ko'rsatishlar riski darajasi yuqori bo'lgan hisobvaraqlar va operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Natijada auditor tekshiruvni aynan risk darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirib, audit samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish hamda korxonalarda ichki nazorat tizimini rivojlantirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritishning huquqiy asosini belgilaydi [1]. Shuningdek, moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentning «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori [2] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2025-yildagi PQ-282-son «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari muhim ahamiyatga ega [3]. Ishlab chiqarish subyektlarida mahsulot tannarxini shakllantirishning to'g'riligi moliyaviy natijalar ishonchligini ta'minlaydi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini to'g'riligini hamda aniqligini tekshirishda tahliliy amallarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxi audit masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, xorijiy olimlar Horngren, Foster va Datar o'z ilmiy ishlarida xarajatlar hisobini boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida ko'rib chiqadilar. Horngren, Foster va Datar fikriga ko'ra, «xarajatlar hisobi nafaqat moliyaviy natijalarni aniqlash, balki korxonada faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish uchun ham zarur» [4].

Xorijiy olimlar audit sohasida Arens, Elder va Beasley «auditorlik tekshiruvda tahliliy amallarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni audit riskini aniqlash va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini baholashning muhim vositasi sifatida ko'rsatadi» [5].

Auditor xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy va u bilan bog'liq boshqa hisobotlar yuzasidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalari sifatini oshirishda tahliliy amaliyotdan samarali foydalanish lozim. Iqtisodchi olim K.B. Ahmadjonovning fikricha: «Korxonalarining joriy yilga oid moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini foiz va nisbat ko'rinishida avvalgi yilgi hisobotlar, statistik va budjet ko'rsatkichlari bilan solishtirish tahliliy amaliyot» [6] deyiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini shakllantirish va audit masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, professor A.X. Pardayev o'z ilmiy ishlarida «boshqaruv hisobi tizimida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash korxonada faoliyati samaradorligini baholashning muhim instrumenti hisoblanishini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, xarajatlarni to'g'ri guruhlash va tannarxni aniq hisoblash korxonaning moliyaviy natijalarini ishonchli aniqlash imkonini beradi» [7].

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olim Sh.A. Shoalimov audit sohasidagi ilmiy

tadqiqotlarida «auditorlik tekshiruvda tahliliy amallardan foydalanish moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligini baholash, audit riskini aniqlash va xatolik ehtimoli yuqori bo‘lgan sohalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi» [8].

Mahalliy iqtisodchi olim T.Sh. Shodiyev esa buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish masalalarini o‘rganib, zamonaviy sharoitda hisob va hisobot tizimi raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda rivojlanishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, «ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi» [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxi auditorlik hamda auditorlik tekshiruvda tahliliy amallardan foydalanish korxonalar moliyaviy natijalarini to‘g‘ri baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash, tizimli

tahlil va omilli tahlil usullaridan foydalanildi. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi hamda auditorlik tekshiruvda qo‘llaniladigan tahliliy amallar asosida baholandi.

Auditorlik tekshiruvda tahliliy amallar quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilindi:

- ❖ xarajatlar tarkibini tahlil qilish;
- ❖ xarajatlar dinamikasini tahlil qilish;
- ❖ mahsulot tannarxini hisoblash;
- ❖ tannarx o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- ❖ ishlab chiqarish samaradorligini baholash.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

«O‘zdonmahsulot» AJ tizimidagi subyektlarda mahsulot tannarxi tarkibini o‘rganish ishlab chiqarish xarajatlarining shakllanish mexanizmini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Xarajatlar tarkibini tahlil qilish orqali tannarxga eng katta ta’sir etuvchi xarajat turlari aniqlanadi hamda xarajatlar tarkibidagi o‘zgarishlar baholanadi. Shu maqsadda korxonada ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va ularning 5 yillik o‘zgarishi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

“O‘zdonmahsulot” AKda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi

(mlrd. so‘m)

Xarajat turlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Xom ashyo	80	90	95	100	120
Ish haqi	18	19	20	22	25
Energiya	12	13	14	15	18
Amortizatsiya	8	9	9	10	12
Transport	4	4.5	5	5	6
Boshqa xarajatlar	10	11	12	13	19
Jami	132	146.5	155	165	200

O‘zdonmahsulot AKda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini tahlil qilish mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonini baholashda muhim ahamiyatga ega. 1-jadval

ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zdonmahsulot AKda ishlab chiqarish xarajatlari yillar davomida oshib borish tendensiyasiga ega. Jami ishlab chiqarish xarajatlari 2020-yilda 132 mlrd.

soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 200 mlrd. soʻmga yetgan. Xarajatlarning asosiy oʻsishi xom ashyo xarajatlari hissasiga toʻgʻri kelib, ular 80 mlrd. soʻmdan 120 mlrd. soʻmga oshgan. Shuningdek, ish haqi va energiya xarajatlarining ham yilma-yil oshib borishi kuzatilgan. Bu holat mahsulot tannarxining oshishiga asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kompaniyada ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va ularning yillar boʻyicha oʻzgarishini

tahlil qilish auditorlik tekshiruvida muhim tahliliy amallardan biri hisoblanadi. Xarajatlar dinamikasini tahlil qilish orqali mahsulot tannarxining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi. Shu maqsadda Oʻzdonmahsulot AK misolida ishlab chiqarish xarajatlarining 5 yillik dinamikasi tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Oʻzdonmahsulot AKda ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi

(mlrd. soʻm)

Xarajat turlari	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Xom ashyo	80	90	95	100	120
Ish haqi	18	19	20	22	25
Energiya	12	13	14	15	18
Amortizatsiya	8	9	9	10	12
Transport	4	4.5	5	5	6
Boshqa xarajatlar	10	11	12	13	19
Jami xarajatlar	132	146.5	155	165	200

Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasini tahlil qilish auditorlik tekshiruvida muhim tahliliy amallardan biri hisoblanadi. Tahlil natijalariga koʻra, Uzdonmahsulot tizimidagi korxonada jami ishlab chiqarish xarajatlari 2020-yildagi 132 mlrd. soʻmdan 2024-yilga kelib 200 mlrd. soʻmga oshgan. Xarajatlarning asosiy oʻsishi xom ashyo xarajatlari hissasiga toʻgʻri kelib, ular 80 mlrd. soʻmdan 120 mlrd. soʻmga oshgan. Bu esa mahsulot tannarxining oshishiga asosiy omil boʻlib xizmat qilgan. Shuningdek, energiya va mehnat haqi xarajatlarining ham yilma-yil oshib borishi

kuzatilgan. Auditorlik tekshiruvida bunday oʻsish sabablarini aniqlash, xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligini tekshirish hamda tannarx oshishiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasini tahlil qilish mahsulot tannarxining oʻzgarish tendensiyasini aniqlash imkonini beradi. Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarish hajmi oʻzgarishiga bogʻliq holda shakllanadi. Shu sababli korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 5 yillik davr kesimida hisoblab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi

Yillar	Jami xarajatlar	Ishlab chiqarish hajmi (tonna)	1 tonna tannarx
2020-yil	132	900	146
2021-yil	146.5	920	159
2022-yil	155	950	163
2023-yil	165	980	168
2024-yil	200	1000	200

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada mahsulot tannarxi yillar davomida oshib borish tendensiyasiga ega. 2020-yilda bir tonna mahsulot tannarxi 146 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 200 mlrd. so'mga yetgan. Tannarxning oshishiga asosan xom ashyo va energiya xarajatlarining oshishi ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga ishlab chiqarish hajmining oshishi tannarx o'sishini ma'lum darajada cheklab turgan. Mahsulot tannarxining o'zgarishini

tahlil qilish auditorlik tekshiruvda muhim tahliliy amallardan biri hisoblanadi.

Mahsulot tannarxining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash auditorlik tekshiruvda muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Tannarx o'zgarishiga ishlab chiqarish xarajatlari hajmi, ishlab chiqarish hajmi hamda xarajatlar tarkibi ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mahsulot tannarxining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar omilli tahlil yordamida o'rganildi (4-jadval).

4-jadval

Mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2024-yil	O'zgarish
Jami xarajatlar	132	200	+68
Ishlab chiqarish hajmi	900	1000	+100
1 tonna tannarx	146	200	+54
Xarajatlar ta'siri	-	-	+40
Hajm ta'siri	-	-	+14

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mahsulot tannarxining oshishiga asosiy ta'sir etuvchi omil ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi hisoblanadi. Xarajatlar ta'siri natijasida tannarx 40 mlrd. so'mga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmining oshishi tannarxni 14 mlrd. so'mga kamaytiruvchi omil sifatida ta'sir ko'rsatgan. Bu shuni ko'rsatadiki, korxonada tannarx oshishining asosiy sababi xarajatlar hajmining ortishi bilan bog'liq. Auditorlik tekshiruvda bunday tahlil tannarx

o'zgarishining asosiy sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Auditorlik tekshiruvda mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlarini tekshirishda turli tahliliy amallardan foydalaniladi. Ushbu tahliliy amallar yordamida xarajatlar dinamikasi, tannarx o'zgarishi, xarajatlar tarkibi va ishlab chiqarish samaradorligi baholanadi. Auditorlik tekshiruvda qo'llaniladigan asosiy tahliliy amallar quyidagi jadvalda keltirilgan (5-jadval).

5-jadval

Auditorlik tekshiruvda qo'llaniladigan tahliliy amallar

Tahliliy amal turi	Mazmuni	Maqsadi
Gorizontal tahlil	Xarajatlarni yillar bo'yicha solishtirish	Xarajatlar o'zgarishini aniqlash
Vertikal tahlil	Xarajatlar tarkibini aniqlash	Xarajatlar ulushini aniqlash
Tannarx tahlili	Mahsulot tannarxini hisoblash	Tannarx o'zgarishini aniqlash
Omilli tahlil	Tannarxga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash	Tannarx o'zgarish sababini aniqlash
Rentabellik tahlili	Foyda va tannarx nisbatini aniqlash	Korxonada samaradorligini baholash

Auditorlik tekshiruvda tahliliy amallardan foydalanish audit samaradorligini

oshiradi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini baholash

imkonini beradi. Tahliliy amallar yordamida auditor ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasi, mahsulot tannarxi o'zgarishi hamda xarajatlar tarkibini tahlil qiladi. Bu esa audit riskini kamaytirish, xatolik va buzilishlarni aniqlash hamda korxonalar moliyaviy natijalarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Shu sababli auditorlik tekshiruvida tahliliy amallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Auditorlik tekshiruvida tahliliy amallardan foydalanish Auditning xalqaro standartlari talablariga ham mos keladi. Xususan, Auditning xalqaro standarti 520 «Tahliliy amallar»ga muvofiq «auditor auditni rejalashtirish bosqichida, audit jarayonida hamda audit yakunida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini baholashda tahliliy amallardan foydalanishi lozim. Ushbu standartga ko'ra, moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish orqali auditor moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining asoslanganligini baholaydi va audit riskini aniqlaydi» [3].

Olib borilgan tahlillar natijasida mahsulot tannarxi shakllanishi asosan ishlab chiqarish xarajatlari hajmi va tarkibiga bog'liqligi aniqlandi. Tannarx oshishiga asosiy ta'sir etuvchi omil xarajatlar hajmining oshishi hisoblanadi, ishlab chiqarish hajmining oshishi esa tannarxni kamaytiruvchi omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Auditorlik tekshiruvida tahliliy amallardan foydalanish xarajatlar va tannarx ko'rsatkichlarini baholash hamda audit riskini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlari auditi jarayonida tahliliy amallardan foydalanish mahsulot tannarxining shakllanish jarayonini chuqur o'rganish, xarajatlar tarkibi va dinamikasini baholash hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uzdond mahsulot tizimidagi korxonalar misolida olib borilgan tahlillar natijasida mahsulot tannarxi asosan xom ashyo, energiya va mehnat haqi xarajatlari ta'sirida shakllanishi aniqlandi. Xarajatlar dinamikasi tahlili ishlab chiqarish xarajatlari yillar davomida oshib borayotganligini ko'rsatdi va bu holat mahsulot tannarxining oshishiga asosiy sabab bo'lib xizmat qilganligi aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda, omilli tahlil natijalari mahsulot tannarxi o'zgarishiga eng katta ta'sir ishlab chiqarish xarajatlari hajmi bilan bog'liqligini, ishlab chiqarish hajmining oshishi esa tannarxni kamaytiruvchi omil sifatida ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Auditorlik tekshiruvida tahliliy amallardan foydalanish xarajatlar va tannarx ko'rsatkichlarini kompleks baholash, ularning o'zgarish sabablarini aniqlash hamda audit riskini kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditni takomillashtirish, shuningdek auditorlik tekshiruvida tahliliy amallardan keng foydalanish korxonalarda xarajatlar samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va moliyaviy natijalarni yaxshilashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, 13.04.2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori, 29.06.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-282-son qarori, 15.09.2025.
4. Auditning xalqaro standarti (ISA) 520 «Analitik amallar». Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC), 2018.

5. Horngren C., Datar S., Rajan M. «Cost Accounting»: A Managerial Emphasis. – Pearson, 2014.
6. Arens A., Elder R., Beasley M. «Auditing and Assurance Services». – Pearson, 2017.
7. Axmadjonov K., I. Yakubov. “Audit asoslari”. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.
8. Pardayev A.X. «Boshqaruv hisobi». – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
9. Shoalimov A.X., Ilxomov Sh.I. «Audit». – Toshkent, 2015.
10. Shodiyev T.Sh. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi». – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.